

## BANK INNOVATSIYALARI VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREDIT SKORINGINING TAKOMILLASHUVI

Xolov Malikjon Yorbojevich

Markaziy Bank Navoiy viloyati

Bosh boshqarmasi Kredit tashkilotlarini

inspeksiya qilish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7543829>

**Annotatsiya.** Bugun milliy rivojlanishning bosh maqsadi raqamli texnologiyalarni jadal suratlar bilan iqtisodiyotga va ijtimoiy sohaga joriy etishga qaratilgan. Bu jarayonga esa iqtisodiyotning muhim omili sanalmish bank sektori eng sezgir bir unsur hisoblanadi. Qolaversa, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va natijada iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi imtiyozlarning o'zgarishi banklarning raqamli iqtisodiyotini shakllantirish uchun mezon bo'la oladi. Mazkur maqolada raqamli Iqtisodiyot sharoitida kredit skoringining takomillashuvi hamda zamonaviy banklarni innovatsiyalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy banklar, innovatsion samaradorlik, strategik yechim, moliyaviy inqiroz, kredit skoringi, kredit tashkilotlari raqamli iqtisodiyot.

XXI asrda bank faoliyatini boshqarish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni jiddiy o'rganishga bo'layotgan intilishlar, bank ishini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ba'zi nazariy, uslubiy va shuningdek, ko'plab amaliy masalalar atrofida muammolar yig'ilganidan darak berib, ularning yechimi jiddiy ilmiy o'rganishlar, izlanishlarni talab etadi. Eng asosiysi bank biznesida innovatsiyalarning samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish muammolari strategik yechim hamda innovatsion faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Jahon moliyaviy inqirozning sabablari tahliliga e'tibor berilsa, bir qator o'ziga xos, shu jumladan bank, mahsulotlarning keng qo'llanilishi, bu yerda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarni qayta ko'rib chiqish zarurligi aniqlanmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda"[1], deya ta'kidlab o'tgan.

Ma'lumki, banklar kredit taqdim etishda yetakchi o'rin egallaydi. O'z navbatida, kredit tashkilotlari butun moliyaviy xizmatlar sanoatining raqamli o'zgarishi va moliyaviy ekotizimni shakllantirishning asosiy o'tkazuvchisi bo'lib, moliya va iqtisodiyotning real sektorlari o'rtasidagi hamkorlik shakli va usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Daromad darajasi har xil bo'lgan mijozlar iqtisodiy rivojlanish bosqichlaridan qat'i nazar, asosiy hayotiy maqsadlardan chalg'itmasdan, ko'proq innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanishga moyillik ko'rsatishmoqda. Shundan kelib chiqib, ushbu tezislarda ilgari surilayotgan fikrlarning ilmiy yangiligi kredit skoringi metodlarini bank innovatsiyalarini rivojlantirish kontseptsiyasi doirasida ishlab chiqish va asoslash, shuningdek raqamli iqtisodiyotda banklar hamkorligining zamonaviy shakllarini yoritishdan iboratdir. Aslida, "Innovatsiya" ta'rifi XIX asrda paydo bo'lgan. To'g'ridan-to'g'ri ma'noda innovatsiya (ingliz tilidan tarjima qilingan "yangilik") - yangiliklar (innovatsiyalar) yoki yangiliklarni kiritish ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya" atamasi lotincha, "novatio", ya'ni "yangilash / o'zgartirish", uning ma'nosi "yangi kirish"dir. Innovatsiya - bu yangi g'oya va uni amaliy amalga oshirishni anglatadi.

Innovatsion jarayonlarni chuqur o'rganish avstriyalik iqtisodchi J.Shumpeter tomonidan amalga oshirilib, u "rivojlanish shakli va mohiyati" yangi kombinatsiyalarni o'tkazish "tushunchasi bilan belgilanadi", deb hisoblagan. U iqtisodiyotning rivojlanishidagi o'zgarishlarning "yangi kombinatsiyalarini" o'rganib, "iqtisodiy rivojlanish", "innovatsiya" atamalarini bir-biriga bog'lab, ularni yangi, noma'lum narsa paydo bo'lishi orqali ko'rib chiqadi, innovatsion jarayonni dinamik raqobat bilan birlashtiradi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlari, umuman, barcha moliya-kredit institutlariga va ayniqsa banklar faoliyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Bu holat zamonaviy bank texnologiyalarini yaratishda namoyon bo'lgan bank innovatsiyalarini joriy etish oqibatlarini sifatli qayta ko'rib chiqish vazifalarini belgilaydi va innovatsion bank infratuzilmasini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, bank innovatsiyalarini amalga oshirish samaradorligini va uning bankning moliyaviy natijalariga banklarga tahdidlar darajasiga nisbatan ta'sirini baholash metodologiyasini ishlab chiqish zarurligini anglatadi. Banking innovatsiyasi bu nafaqat yangi mahsulotlarni yaratish va amalga oshirish, balki taqdim etilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, zamonaviy infokommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'lib, bu bank mijozlariga bank xizmatlarini olish uchun noyob imkoniyatlarni ochib beradi. Innovatsion yechimlar butun bank boshqaruvini, uning filiallari va onlayn-ofislarini qamrab oladi. Innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning ob'ektiv ehtiyoji shundaki, u davlat iqtisodiyotida sodir bo'layotgan jarayonlarga

muvofiq barcha bank faoliyati rentabelligini saqlashning asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion bank infratuzilmasini shakllantirishga yondashuvlarni o'zgartirish va bank innovatsiyalarini boshqarish uchun zamonaviy moliyaviy va kredit usullarini joriy etishning ob'ektiv zaruriyati banklararo raqobat jarayonlarini o'rganish ahamiyati va dolzarbligini oshiradi.

Raqamli iqtisodiyotga bank innovatsiyalarini joriy qilish bank faoliyatining institutsional va tashkiliy shakllarini o'zgartiradigan innovatsion jarayon sifatida qaraladi. Raqamli iqtisodiyotda istiqboldagi banklar faoliyatining ilmiy talqini yetarli darajada emasligi va amaliy talqin qilish sharoitida, ushbu jarayonni sifatli qayta ko'rib chiqish vazifalari kun tartibidan o'rin olmoqda. Natijada zamonaviy bank yangiliklari va bank infratuzilmasi shakllantirilmogda va bu jarayonda skoring metodlarini takomillashtirishning ahamiyati oshmoqda . Shuningdek, qo'yilgan vazifalarni hal qilish bank sektorining institutsional bazasini mustahkamlashga va uni rivojlantirishning munosib strategiyasini shakllantirishga yordam beradi: buning uchun bank boshqaruvining qo'shimcha shakllarini izlash, zamonaviy bank texnologiyalarini yaratish, bank kapitalini ko'paytirish, bank faoliyatini xatarlarini bashorat qilish masalalari dolzarbligicha qoladi va ilmiy yondashuvning ahamiyati yanada oshaveradi. Binobarin, bank innovatsiyalari va raqamli iqtisodiyot sharoitida kredit skoringining takomillashtirish masalasi davr taqozosiga aylanmogda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021 yildagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. <http://uza.uz>.

2. Karimov N.G., Tashxodjaev M.M. Vozmojnosti razvitiya skoringovogo metoda potrebitelskogo kreditovaniya v Uzbekistane/ European journal of economics and management sciences, Section 8. Finance, money circulation and credit. / 2016, 4, 55-60 betlar.) 3. Yo'ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011y. — 312 b

4. Yendovitskiy D.A., Bocharova I.V. Analiz i otsenka kreditosposobnosti zaemщika: Uchebno-prakticheskoe posobie.– M.: KNORUS, – 2005. – 384 b.

5. Гончаренко Л.П., Олейников Е.А., Березин В.В. “Инновационный менеджмент” учебное пособие/М.: КНОРУС, 2005, — 544 с.

6. [www.economics.ru](http://www.economics.ru)

7. <https://mininnovation.uz/>